UO‘K 94 (575.1)

SOVET TUZUMINING “46 LAR ISHI” BO‘YICHA QATAG‘ON QILINGANLAR QISMATI

O‘.Q. Ubaydullayev

Maqolada 1929-yil oktabrida Zarafshon okrug sudida “46 lar shaykasi ishi” sudi jarayoni, sovet rejimiga qarshi qurolli kurashgan “bosmachilar”ga berilgan jazo hukmi, sud hay’atining “qosimovchilik” guruhiga mansublikda ayblab qatag‘on qilinishi o‘rganilgan. Arxiv manbalari, davriy matbuot materiallari asosida “46 lar ishi” bo‘yicha sud jarayonining siyosiylashtirilishi, sud hay’atining ayblanuvchilarga nisbatan chiqarilgan hukmi “yon bosish”, “millatchilikka” yo‘yilgani ortidan qatag‘on qilingan huquqshunoslar taqdiri ilk bor yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *“46 lar shaykasi ishi”, “qosimovchilik”, sud, bolsheviklar partiyasi, milliy istiqlolchilik, mustamlaka, ayblovchi, sudlanuvchi, sud tizimi, qatag‘on.*

В статье впервые освещен судебный процесс по «делу банды 46-ти» в Зарафшанском окружном суде в октябре 1929 года; рассмотрены вынесенные в данном процессе приговоры «басмачам», участникам вооруженного сопротивления советской власти; указывается на политизацию процесса по «делу 46-ти». На основе архивных источников и материалов периодической печати, представлены сведения о судьбе адвокатов, репрессированных после вынесения судом приговора, который посчитали «предвзятым» и носящим «националистический» характер.

Ключевые слова: «*дело банды 46-ти», «касымовщина», суд, большевистская партия, национальная независимость, колониализм, обвинитель, подсудимый, судебная система, репрессия.*

Kirish

O‘zbekistonda XX asrning 20–30-yillarida kompartiya va sovet hukumati katta fitnalarni ishga solib, milliy istiqlolchilarga, jadidlarga, milliy arboblarga, hatto shu tizimda faoliyat olib borayotgan huquq-tartibot idoralari xodimlariga qarshi qatag‘on siyosatini qo‘lladi.

Sovet tuzumining qatag‘on siyosati qurboni bo‘lgan “qosimovchilik”, “badriddinovchilik” guruhining ayanchli taqdiri haqidagi bor haqiqatlar mustaqillik yillarida yuzaga chiqdi. Biroq sovet davlati huquq-tartibot idoralari xodimlarining qatag‘on jarayonlari bilan bog‘liq masala haligacha to‘la o‘z yechimini topganicha yo‘q. Bu bo‘yicha yaqin davrlargacha “mahfiy” tamg‘asi bilan saqlangan arxiv hujjatlarida yangidan-yangi ma’lumotlar yuzaga chiqmoqda. Ushbu maqolada ana shunday arxiv hujjatlariga asoslangan ma’lumotlar bo‘yicha fikr yuritiladi.

Material va usullar

Maqolani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi qarorlari va farmonlari ijrosini ta’minlashga doir konsepsiya metodologik asos bo‘ldi.

“Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1929–1930-yillardagi sonlarida e’lon qilingan “46 lar shaykasining sudi ochildi”, “46 lar shaykasining sudi”, “46 lar shaykasining oqibati”, “46 lar shaykasiga hukm o‘qildi”, ”Qosimovchilik tomiriga o‘t qo‘yaylik: Zarafshon xalq sudlari orasida “qosimovchilik”ning tomirlari bor”, “Sud apparatlarini “qosimovchilik” qoldiqlaridan tozalaymiz: Adliya idoralariga ommaning nazorati va yordami talab qilinadi” nomli maqolalar hamda mavzuga doir boshqa ilmiy maqola va risolalar tahlil qilindi. Materiallar O‘zbekiston Milliy arxivi va Respublika Davlat xavfsizlik xizmati arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlarni o‘rganish orqali topildi va ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi.

Muammoni tadqiq etishda tarixiylik prinsipiga tayangan holda, qiyosiy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

1920-yil boshlarida Zarafshon okrugining Narpay rayonida Oqtepa va Sultonobod qishlog‘ida o‘z quroliga ega bo‘lgan bir guruh mahalliy yigitlar sovet rejimiga qarshi qurolli qarshilik ko‘rsatish harakatiga birlashadilar. Guruhga Tilov Parmon o‘g‘li boshchilik qiladi, tez orada Tilovning ukasi Bo‘ri Parmon o‘g‘li va yaqin qarindoshi Xayri Sulton o‘g‘li faolligida istiqlolchilar soni 46 nafarga etadi. Ular 1929-yil mart oyigacha, ya’ni sovetlar tomonidan qo‘lga olingunlariga qadar Zarafshon, Buxoro va Qashqadaryo okruglarida sovet tuzumiga qarshi qurolli qarshilik harakatlarini olib borganlar.

1927-yil dekabrdan 1929-yil maygacha Zarafshon okrugi prokurori lavozimida ishlagan Alim Xolboyevning ko‘rsatmasiga ko‘ra, ushbu “jinoiy guruh” ishini Zarafshon okrug sudi raisi G‘afurov boshchiligidagi sud hay’ati 1929-yil aprel–may oylarida ko‘rib chiqadi. “G‘afurov Zarafshon okrug ijroiya qo‘mitasi kotibi G‘ulom Qodirxo‘jayev va ijroiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Said Aliyev ta’sirida bo‘lgan. G‘afurov o‘zining atrofiga har bir jinoiy ishni ko‘rish jarayonida undan ko‘rsatma oladigan odamlarini to‘plab olgan holda, partiya ko‘rsatmalarini buzib talqin qilar va o‘ziga ma’qul bo‘lgan jazo siyosatini yuritardi” [2].

Zarafshon okrug sudining “46 lar ishi” bo‘yicha hukmiga ko‘ra 3 kishi otuv jazosiga, 7-8 kishi oqlanishga, qolganlari 8–9 yildan ozodlikdan mahrum bo‘lishga hukm bo‘lgan, lekin sud hukmi bir qancha sabablarga ko‘ra oliy sud tomonidan to‘xtatilib, ishni qaytadan sudda ko‘rishga qaror qilingan [3].

Zarafshon okrug sudining “46 lar ishi” bo‘yicha hukmi totalitar tuzum amaldorlarini qoniqtirmagan, chunki ular “bosmachi” deb atalgan, aslida yurt ozodligi yo‘lida qurolli harakat olib borgan istiqlolchilarni turli uydirma va bo‘htonlar bilan qatag‘on qilishni maqsad qilgan edi.

Zarafshon okrugi sudida “46 lar ishi” bo‘yicha hukm bekor qilinib, ishni qayta ko‘rib chiqish O‘zbekiston Oliy sudining sayyor sessiyasiga topshiriladi. O‘zbekiston Oliy sudi sayyor sessiyasining navbatdagi majlisi 1928-yil 19-oktyabrdan 30-oktyabrga qadar Narpay rayon Mirbozor qishlog‘ida o‘tkazildi. Sud bayonnomasida shunday deyilgan: “Bu sudda ro‘parada o‘lturg‘an 46 ta jinoyatchilarning jinoyat qonunining 78 va 14 nchi boblarig‘a muvofiq ayblangan ishlari ko‘riladi. Majlisning raisi o‘rtoq Mo‘minov (Oliy sudning sayyor sessiyasining raisi), a’zolar Turg‘unov va Rahmonov (rabochiylardan), davlat qoralovchisi adliya komissarligining vakili, prokuror Mansurov, jamoat qoralovchisi Isroilov, oqlovchi O‘zbekiston oqlovchilar kollegiyasining a’zosi Bog‘danov, sud sarkotibi Mansurov o‘rtoqlar” [4].

Sud ishida quyidagi “aybdorlar” so‘roq qilinadi:

1. Tilov Parmon o‘g‘li – 29 yoshda, millati o‘zbek, xat-savodi yo‘q, 46 lar shaykasining boshlig‘i. 1928-yil oktabrida Karmana rayon Turkiston qishlog‘idagi Xudoyberdi polvon Samandar o‘g‘lining uyini, dekabr oyining oxirida Yantoq qishlog‘ilik Eshboy G‘aybulla o‘g‘lining uyini bosib, mol-mulkini talashda ayblangan. 1928-yilning 22-dekabr kuni Tilov o‘z uyiga shayka a’zolaridan Ochil Ortiq, Namoz Mavlon, Ravshan Orzi, Xudoyor Mirza, Jabbor Jalil, Ulug‘ Yo‘ldosh, Abdulla Tog‘ay, Xayri Sulton, Safar Ergash, Jo‘raqul Turdimurod, Hamro Ergash, Karim Ro‘ziqul, Tongotar Qozoq o‘g‘lini chaqirtirib, maslahat majlisi qiladi. So‘ngra, Yantoq, Oqtepa, Sho‘rcha qishloqlarida talonchilikni davom ettiradi. Siyosiy idora tomonidan Tilovning uyi tintuv qilinganida bir dona Smit-Vesson markali to‘pponcha topiladi. Sudda Tilov har bir javobida o‘zining aybdor emasligini aytib, unga qarshi berilgan barcha ko‘rsatmalarni rad etadi [5].

2. Xayri Sulton o‘g‘li – Tilovning ishonchli kishisi va yigitlarning boshlig‘i bo‘lgan. 1925-yili “bosmachilik” qilib odam o‘ldirgani uchun Karmana rayon sudi tomonidan 6 yilga ozodlikdan mahrum qilingan. Muddatidan oldin ozod etilgach, Yantoq qishlog‘i va Turkistonda bo‘lgan “bosmachilik” va talovchilikda qatnashgan. Xayri Sulton o‘g‘li sudda unga nisbatan qo‘yilgan ayblarning birortasiga iqror bo‘lmagan.

3. Abdulla Tog‘ay o‘g‘li – To‘qmurod qo‘rboshi muovini bo‘lgan. Qizil armiya tomonidan To‘qmurod o‘ldirilganidan keyin Abdulla “46 lar shaykasi”ga kelib qo‘shilgan. Abdulla Tog‘ay “46 lar shaykasi”ning to‘qsabosi bo‘lish maqsadida 1927-yilda Tursun eshon qo‘rboshi (To‘qmurodning qo‘rboshilaridan) bilan birga Afg‘onistonga ham borib keladi. U ham sud tomonidan qo‘yilgan ayblarning birortasiga iqror bo‘lmagan.

4. Bo‘ri Parmon o‘g‘li – shaykaning boshlig‘i Tilovning ukasi, uning o‘ng qo‘l vaziri o‘rnida ishlagan. Bo‘ri 1927-yilda qishloq xalqiga: “Men siyosiy idorada ishlayman, siyosiy idora sizlarga mana muncha soliq soldi” deb soliq yig‘ishtirgan va daromadni “bosmachi”larga ulashgan.

5. Sapar Parmon o‘g‘li – Tilovning ukasi, uning ishonchli yigiti bo‘lib, shayka tomonidan amalga oshirilgan jinoyatda faol qatnashgan. U ham sudda ayblariga iqror bo‘lmagan.

6. Xudoyor Mirza o‘g‘li – Tilovning yigiti. Oldingi bo‘lib o‘tgan sudda Tilov Parmon o‘g‘lining shayka tuzib. dehqonlarni talaganiga doir ko‘rsatmalar bergan bo‘lsa-da, Sapar Mamarasul bilan Soyibnazar degan shaxslar Tilovga nisbatan yolg‘on ko‘rsatma berishga majbur etganini aytgan.

7. Eshto‘xta Quvondiq o‘g‘li – Tilovning ishongan kishisi.

8. Hamroqul Quvondiq o‘g‘li – Turkiston qishlog‘ilik, komsomol a’zosi, shaykaning faol a’zolaridan. Unga yuklangan ayblarning birortasini tan olmagan.

9. Tangriqul Qozoq o‘g‘li – 22 yoshlarda, lo‘li. Tilovning yigiti, sudda barcha ayblarni rad etgan.

10. Ibrohim Hasan o‘g‘li – Tilovning uyida bo‘lgan 14 kishilik majlisdan keyin Yantoq va Islomkent qishloqlarida bo‘lgan uyushgan bosqinchilikda ishtirok etganlikda ayblangan.

11. Namoz Mavlon o‘g‘li – Tilovning ishonchli yigitlaridan bo‘lib, “bosmachilik” harakati olib borganlikda aybdor deb topilgan.

12. Shonazar Yo‘ldosh o‘g‘li – shaykaning faol a’zosi sifatida aybdor deb topilgan.

13. Qilich Jo‘ra o‘g‘li – komsomol yacheykasining bosh kotibi, Tilov shaykasining yashirin a’zosi bo‘lgani, qizil armiya harakatlariga doir muhim ma’lumotlarni etkazib turganlikda ayblangan.

14. Eshqobil Sanaqul o‘g‘li – shaykaning faollaridan bir sifatida bir qancha talonchilik ishlarini amalga oshirganlikda ayblangan, komsomol faoli Annani o‘ldirishda gumonlangan.

15. Sanaqul Mardon o‘g‘li, Bozor Mirza o‘g‘li ham yuqoridagi shaykaga a’zo bo‘lganlikda, komsomol faoli Annani o‘ldirganlikda gumonlanganlar.

16. Normurod Bekmurod o‘g‘li – To‘xta qo‘rboshining qurolli yigiti bo‘lgan. Undan keyin Tilov shaykasiga qo‘shilib, uning o‘g‘irlangan mollarini sotib pul qilish ishini bajarib kelgan. Tilovning buyrug‘i bo‘yicha Otaqulni o‘ldirishda ishtirok qilganlikda aybdor deb topilgan.

17. Sharob Nurmurod o‘g‘li – Tilov Parmon va Bo‘ri Parmonning yigiti.

18. Tohir Husan o‘g‘li, Karim Ro‘ziqul o‘g‘li, Hamro Ergash o‘g‘li, Jabbor Jalil o‘g‘li Islomkent, Yantoq qishloqlarida talonchilik qilganlikda ayblanganlar. Biroq ular ham sudda o‘zlariga qo‘yilgan ayblarning birortasiga iqror bo‘lmagan.

19. Qurbon Iskandar o‘g‘li – Tilov va Bo‘rilarning qarindoshi, ularning ishonchli yigiti. Tilovning yashirinishi uchun o‘z uyidan joy berganlikda ayblangan.

20. Ochil Ortiq o‘g‘li – “46 lar shaykasi”ning faollaridan. 1927-yil 22-dekabrda Tilovnikida bo‘lgan majlisdan keyin Poyon gumbazga borib, Eshboy G‘aybulla o‘g‘lining uyini bosib kelgan 10 kishining biri sifatida ayblanadi.

21. Ravshan Orziqul o‘g‘li, shaykaning eng faollaridan, Ochil bilan Poyon gumbazdagi “bosmachilik”-ka birga borganlikda ayblangan. Lekin sudda unga qo‘yilgan ayblarga iqror bo‘lmagan.

22. Hamdam Mahmud o‘g‘li – Tilovning yigiti, Islomkent va Parmidon qishloqlaridagi “bosmachilik” harakatida faol qatnashganlikda ayblangan. Tintuv vaqtida uyidan bitta nagan to‘pponcha, bir qancha o‘q topilgan.

23. Ravshan Darvesh o‘g‘li shayka boshlig‘i Tilov bilan bir qishloqda yashagan, shaykaning faol a’zosi bo‘lgan. 1927-yilda ot o‘g‘irlaganligi uchun sudlangan. Sudda Tilov Parmon o‘g‘li shayka tuzganini tasdiqlagan.

24. Temur Ergash o‘g‘li shaykaning a’zosi ekanini inkor qilsa ham, bergan javobida Tilov va mulla Bo‘ri Parmon o‘g‘lining qurolli harakat olib borganini tasdiqlagan.

25. Javri To‘ychi o‘g‘li Tilovning eng yaqin do‘sti bo‘lgani uchun ayblangan.

26. Eshto‘xta Yo‘ldosh o‘g‘li kechalari o‘z uyiga Tilov Parmon o‘g‘lini olib kelib, bazm qilib bergani uchun ayblangan.

27. Tongotar Qozoq o‘g‘li – imom, shaykani qo‘llab-quvvatlab fatvo berganlikda ayblangan.

28. Normurod Qodir o‘g‘li, Mirzoqul Eshmurod o‘g‘li, Parmon Hotam o‘g‘li, Rayimqul Maqsum o‘g‘li, Turob Parda o‘g‘li, Xudoyor Mirza o‘g‘li, Haydar Cho‘li o‘g‘li, Sharob Nurmat o‘g‘li ham turli ayblovlar bilan sud qilinadi [4].

Sudga chaqirilgan guvohlar 86 kishi bo‘lib, ular “46 lar shaykasi”ga qarshi ko‘rsatma beradilar. 1929-yil 28–29-oktabr kunlari “aybdor”larning so‘nggi so‘zlari eshitildi. Oqlovchi va qoralovchilar xulosalari tinglanadi.

1929-yil 30-oktabr kuni soat 11 da sud hay’ati o‘z hukmini e’lon qiladi. Unga ko‘ra, aybdor Tilov Parmon o‘g‘li, Abdulla Tog‘ay va Xayri Sulton o‘g‘li shaykaning boshliqlari bo‘lib, avvaldan qishloq mehnatkashlari xo‘jaliklarini talab kelganlikda, sovet hukumatiga siyosiy va iqtisodiy zarba berganlikda aybdor deb topildilar. Ular “Jinoyat kodeksi”ning 78-bobi 2-bandiga muvofiq otib o‘ldirish va mol-mulkining yarmi hukumat foydasiga musodara qilinishga hukm qilingan.

Bo‘ri Farmon o‘g‘li, Ravshan Orziqul o‘g‘li, Sharob Nurmurod o‘g‘li, Tongotar Qozoq o‘g‘li, Xudoyor Mirza o‘g‘li “Jinoyat kodeksi”ning 78-bobi 1-bandiga muvofiq 10 yil qamoq jazosiga va mol-mulkining yarmi hukumat foydasiga musodara qilinishga; 10 yil qamoq jazosi o‘talganidan keyin 5 yil muddatga fuqarolik huquqidan mahrum etilishga hukm qilingan.

Tangriqul Qozoq o‘g‘li, Safar Farmon o‘g‘li, Jo‘raqul Turdimurod o‘g‘li, Namoz Mavlon o‘g‘li “Jinoyat kodeksi”ning 78-bobi 1-bandiga muvofiq qattiq tartib asosida 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum

qilinib, mol-mulkining yarmi hukumat foydasiga musodara qilinishga hamda 3 yildan muddatga fuqarolik huquqidan mahrum etilishga hukm qilingan.

Safar Ergash o‘g‘li, Karim Ro‘ziqul o‘g‘li, Hamid Mahmud o‘g‘li, Rizoqul Eshmurod o‘g‘li, Turob Parda o‘g‘li, Haydar Cho‘li o‘g‘li va Ulug‘ Yo‘ldosh o‘g‘li “Jinoyat kodeksi”ning 78-bobi 1-bandiga muvofiq qattiq tartib asosidagi 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilishga, mol-mulkining yarmi hukumat foydasiga musodara qilinishga va 5 yillik qamoq muddatidan keyin bir yildan fuqarolik huquqidan mahrum etilishga hukm qilingan.

Qurbon Iskandar o‘g‘li, Tohir Hasan o‘g‘li, Rahimqul Maqsum o‘g‘li qattiq tartibdagi 3 yillik qamoq jazosi, mol-mulkining yarmini davlat foydasiga musodara qilish hamda 3 yillik qamoq muddati o‘talganidan keyin bir yil muddatga fuqarolik huquqidan mahrum etilishga hukm qilingan.

Ochil Ortiq o‘g‘li qattiq tartibli 6 yillik qamoq jazosiga hukm qilingan, lekin uning yoshligi, ilmsizligi e’tiborga olinib, belgilangan muddatni 4 yilga kamaytirishga, mol-mulkining yarmi hukumat foydasiga musodara qilinib, 4 yillik qamoq jazosidan keyin 1 yil muddatga fuqarolik huquqidan mahrum etilishga hukm qilingan.

Jabbor Jalil o‘g‘li, Hamro Quvondiq o‘g‘li, Hamro Ergash o‘g‘li 6 yilga ozodlikdan mahrum qilingan. Lekin ularning yoshligi, ilmsiz va kambag‘alligi e’tiborga olinib, 6 yillik qamoq jazosi 4 yillik shartli qamoq jazosiga o‘zgartirilgan.

Eshto‘xta Quvondiq o‘g‘li va Farmon Hotam o‘g‘li 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, lekin ularning ilmsiz va kambag‘al dehqon ekani e’tiborga olinib, 3 yil qamoq jazosi shartli qamoq muddatiga o‘zgartirilgan, shuningdek, ular mol-mulkining yarmini davlat foydasiga musodara qilishga, 3 yillik shartli qamoq muddati tugaganidan keyin bir yil muddatga fuqarolik huquqidan mahrum etilishga hukm qilingan.

Ravshan Darvesh o‘g‘li, Temur Ergash o‘g‘li, Qilich Jo‘ra o‘g‘li, Norbo‘ta Bo‘ta o‘g‘li, To‘xta Shukur o‘g‘li, Quvvat Ahmad o‘g‘li, Suyun Sano o‘g‘li, Mardon Sano o‘g‘li, Sanoqul Mahammad o‘g‘li, Shonazar Yo‘ldosh o‘g‘li, Bozor Mirza o‘g‘li va Shodi Mo‘min o‘g‘li aybsiz ekani tasdiqlanib, sud tomonidan oqlanganlar [6].

Zarafshon okrugi sudi tomonidan “46 lar shaykasi ishi” bo‘yicha o‘tkazilgan sud va “jinoyatchilar” ustidan chiqarilgan hukm jazo organi bo‘lgan sovet sudini qoniqtirmadi. Ular “Zarafshon okrugi xalq sudlari orasida “qosimovchilik”ning tomirlari bor” [7], degan gumonga borib, ishni qayta ko‘rib chiqish va sud hay’ati a’zolarini kirdikorlarini qidirishga o‘tdi [8].

Mazkur sud ishi va hukmidan keyin Zarafshon okrugi sudi raisi Hamid Rahimovich G‘ofurov, bir guruh sud xodimlari hamda oddiy fuqarolarga O‘zbekiston SSR prokuraturasining ichki ishlar bo‘yicha tergovchisi Kabanov tomonidan ayblov xulosasi e’lon qilinadi [9]. Unda shunday deyilgan edi:

“Quyidagilar Zarafshon okrugidagi sud-tergov ishlarida o‘z mansab lavozimidan foydalanib mavjud tuzumga qarshi aksilinqilobiy harakatlar olib borgan, o‘ziga to‘q va boylar, “quloqlar” manfaatini himoya qilgan, jinoyatchilar bilan murosachilik qilib, jinoyatlarga yengil jazo bergan, hujjatlarni qalbakilashtirishda, pora olganlikda aybdor deb topilsin”.

1. G‘ofurov Hamid Rahimovich – Zarafshon okrug sudi sobiq raisi, 43 yoshda, o‘zbek, oilali, savodli, 1918–1920-yillarda Qizil armiya safida xizmat qilgan. 1925-yildan partiya a’zosi, partiya bileti raqami – 832477, ijtimoiy kelib chiqishi Buxoro shahridan, xizmatchi oilasidan, ilgari sudlanmagan.

2. Baltikov Minaydar – Zarafshon okrug sudining sobiq a’zosi, 35 yoshda, qozoq, uylanmagan, ma’lumoti – 3 yillik yuridik kursni tamomlagan, 1928-yildan partiya a’zosi, partiya bileti raqami – 08400937, qizilo‘rdalik dehqon oilasidan, avval sudlanmagan.

3. Mahmudov Zaynitdin – Kattaqo‘rg‘on rayoni sobiq xalq sudyasi, 37 yoshda, o‘zbek, savodli, oilali, 1920–1923-yillarda Qizil armiya safida xizmat qilgan. 1921-yildan partiya a’zosi, Karmana rayoni Arg‘un qishlog‘idan, kelib chiqishi Buxoro amirining sobiq amaldorlaridan, ilgari sudlanmagan.

4. G‘aniyev Hamro – Konimex rayoni sudyasi, 28 yoshda, arab, oilali, eski usul maktabini tamomlagan, 1921-yildan partiya a’zosi, partiya bileti raqami – 016218. Konimex rayoni Arabxona qishlog‘idan, ijtimoiy kelib chiqishi savdogar boy oiladan. 1924–1926-yillarda Qizil armiya safida xizmat qilgan, ilgari sudlanmagan.

5. Ibragimov Ubaydullo – Konimex rayoni xalq sudyasi, 26 yoshda, o‘zbek, eski usul maktabini tamomlagan. Zarafshon okrugi Narpay rayoni Oqtosh qishlog‘idan, o‘ziga to‘q boy oiladan, partiya a’zoligiga nomzod, ilgari sudlanmagan.

6. Navro‘zov Solih – Xatirchi rayoni xalq tergovchisi, 26 yoshda, o‘zbek, ma’lumoti – yuridik kursni tamomlagan, ijtimoiy kelib chiqishi eskibuxorolik xizmatchilar oilasidan, ilgari sudlanmagan.

7. Hamidov Mulla Juma – Xatirchi rayoni ichki ishlar bo‘limida jinoyat qidiruv ishlari bo‘yicha agent, 33 yoshda, ma’lumoti quyi, o‘zbek, oilali. Konimex rayoni Ayronchi qishlog‘idan, dehqon oilasidan, partiyasiz, ilgari sudlanmagan.

8. Malik Baxtamov Amazon Ivanovich – himoyachilar jamiyati vakili, 34 yoshda, arman, o‘rta ma’lumotli, oilali, 1918-yildan partiya a’zosi, partbilet raqami – 09867397. Qizil armiyada xizmat qilgan, avval sudlanmagan. U “Jinoyat kodeksi”ning 133–138-bandlari bo‘yicha aybdor deb topilgan. Biroq sudda u “Menga qo‘yilgan ayblovlarda men o‘zimni mutlaq aybdor deb bilmayman. Himoyachilar kollektivida men bir yil ishladim, lekin men ikki oy kurortda bo‘lganimni va ikki oy Narpay rayonidagi “46 lar ishi”da qatnashganimni e’tiborga olinsa, haqiqatda 8 oy ishladim. “46 lar ishi” bo‘yicha sud tomonidan chiqarilgan hukm jinoyat kodeksiga muvofiq deb hisoblayman” - degan.

9. Soibov Axmad – 71 yoshda, savodsiz, Kattaqo‘rg‘on rayoni Mulla Kichkina qishlog‘idan, yirik yer egasi bo‘lgan. 1930-yilda 3 yilga ozodlikni cheklashga hukm qilingan.

10. Xo‘jaev To‘raqul – 65 yoshda, Kattaqo‘rg‘on rayoni Chordara qishlog‘idan, yirik yer egasi bo‘lgan. 1930-yilda Zarafshon okrugi 2-uchastka sudi tomonidan 2 yilga ozodlikni cheklash jazosiga tortilgan.

11. Rustamov Mulla Duman – 35 yoshda, savodli, Kattaqo‘rg‘on rayoni Saroyqo‘rg‘on qishloq Soveti Qiyot qishlog‘idan, yirik yer egasi bo‘lgan, ishi OGPUga oshirilgan.

12. Gadoyev To‘raqul – 65 yoshda, savodsiz, oilali, partiyasiz. Narpay rayoni Qilich qishlog‘idan, boy chorvador bo‘lgan. 1929-yilda Zarafshon okrugi sudi tomonidan 2 yil ozodlikni cheklashga hukm qilingan.

13. Ahmedov Ergash – 36 yoshda, Kattaqo‘rg‘on rayoni Lobiyahur qishlog‘idan, yirik yer egasi, boy oiladan. 1929-yilda 6 oylik ozodlikni cheklash jazosini olgan.

14. Roziqov Xoliq – 65 yoshda, millati o‘zbek, savodsiz, partiyasiz. Kattaqo‘rg‘on rayoni Lobiyahur qishlog‘idan, yirik yer egasi, boy oiladan. 1930-yilda 2 oylik ozodlikni cheklash jazosini olgan.

15. Qurbonov Ortiq – 37 yoshda, millati o‘zbek, savodsiz, partiyasiz, Kattaqo‘rg‘on rayoni Xonqul qishlog‘idan, yirik yer egasi, boy oiladan. 1930-yilda 2 oylik ozodlikni cheklash jazosini olgan.

16. Saidov Shodmon – 75 yoshda, millati o‘zbek, savodsiz, partiyasiz. Kattaqo‘rg‘on rayoni Lobiyahur qishlog‘idan, yirik yer egasi, boy oiladan. 1930-yilda 2 oylik ozodlikni cheklash jazosini olgan.

17. Eshonqulov Mirza – 56 yoshda, millati o‘zbek, ma’lumoti quyi, oilali, partiyasiz. Kattaqo‘rg‘on shahridan, xizmatchi oilasidan, kasbi – devonxona ish yurituvchisi, avval sudlanmagan.

18. Sodiqov Bo‘ri – 55 yoshda, millati o‘zbek, ma’lumoti quyi, partiyasiz. Kattaqo‘rg‘on rayoni Mulla Kichkina qishlog‘idan, yirik yer egasi bo‘lgan, 1930-yilda 6 oylik ozodlikni cheklash bo‘yicha jazolangan.

19. Muqimov Xoli – 55 yoshda o‘zbek, ma’lumoti quyi, partiyasiz. Kattaqo‘rg‘on rayoni Mulla Kichkina qishlog‘idan, yirik yer egasi bo‘lgan.

20. Qarshiyev Abduqodir – 30 yoshda, millati o‘zbek, ma’lumoti quyi, partiyasiz. Xatirchi rayoni Changir qishloq Soveti Dilyorur qishlog‘idan, yirik yer egasi bo‘lgan.

21. Jabbarov Mulla Hamid – 29 yoshda, o‘zbek, savodsiz, partiyasiz. Kattaqo‘rg‘on rayoni Lobiyahur qishlog‘idan, yirik yer egasi, boy oiladan. Konselyariya ish yurituvchisi bo‘lgan, aksilinqilobiy harakatlari uchun OGPU tomonidan tergovga olingan.

22. Xolboyev Olim – Zarafshon okrugi sobiq prokurori, 30 yoshda, qozoq, yuridik kursni tamomlagan, 1926-yildan partiya a’zosi, partiya bileti raqami – 0836109. Samarqand okrugi Kursafar qishlog‘idan, ijtimoiy kelib chiqishi xizmatchilar oilasidan, ilgari sudlanmagan.

23. Begimqulov Xolmirza – Qoradaryo rayoni xalq sudyasi bo‘lgan, 27 yoshda, o‘zbek, 1930-yildan partiya a’zoligiga nomzod. Yangiqo‘rg‘on rayoni Usmat qishlog‘idan, xizmatchi oilasidan, ilgari sudlanmagan.

24. Bobrov Aleksandr Ivanovich – Himoyachilar jamiyati a’zosi, 45 yoshda, rus, ma’lumoti oliy, partiyasiz, oilali. Dog‘iston oblast Petrovsk shahrida ishchilar oilasida tug‘ilgan. 1917–1922-yillarda Qizil armiya safida xizmat qilgan. RSFSR JKning 116-moddasi bilan 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan.

25. Kirpichev Vladimir Maksimovich – Himoyachilar jamiyati a’zosi, 45 yoshda, rus, ma’lumoti oliy, partiyasiz, oilali. Kubansk oblast Kuropatkin shahrida ishchilar oilasida tug‘ilgan. 1918–1922-yillarda Qizil armiya safida xizmat qilgan. Ilgari sudlanmagan.

26. Xo‘jaqulov Jo‘raqul – 45 yoshda, o‘zbek, ma’lumoti quyi. Kattaqo‘rg‘on shahridan, ishchilar oilasidan, ilgari sudlanmagan.

27. Farmanov Ibod – 27 yoshda, o‘zbek, ma’lumoti o‘rta, oilali. Narpay rayon Oqtosh qishloq soveti Yangiariq qishlog‘idan. 1926–1928-yillarda Qizil armiya safida xizmat qilgan. 1928-yildan partiya a’zosi, xizmatchi oilasidan.

28. Jiyanov Karim – 38 yoshda, o‘zbek, ma’lumoti quyi. Kattaqo‘rg‘on rayoni Omon Kalxat qishlog‘idan, yirik yer egasi bo‘lgan. Zarafshon okrugi sudi qarori bilan 1929-yilda 3 yilga ozodlikni cheklashga hukm qilingan.

29. Boboyev Ali – 29 yoshda, millati o‘zbek, ma’lumoti quyi. Kattaqo‘rg‘on rayoni Omon Kalxat qishlo-

g‘idan, yirik yer egasi bo‘lgan. Zarafshon okrugi sudi qarori bilan 1929-yilda 3 yilga ozodlikni cheklashga hukm qilingan.

Sudlanuvchilar G‘ofurov, Baltikov, Mahmudov, G‘aniyev, Ibragimov, Navro‘zov, Hamidov, Melik Baxtamovlar Sa’dulla Qosimov ko‘magida Zarafshon okrugidagi sud-tergov ishlariga tayinlangan, ular o‘z mansab lavozimidan foydalanib, sud-tergov ishlarida jinoyatchilar bilan murosachilik qilganlikda ayblanganlar.

Xolboyev va Begimqulovlar xalq sudida lavozimlarda ishlaganda sinfiy jinoyatlarga yengil jazo berganlikda, Bobrov va Kirpichov himoyachilar kollektivi a’zosi bo‘lgani bilan hujjatlarni qalbakilashtirishda, Xo‘jaqulov pora olganlikda, Farmanov, Jiyanov va Boboyevlar o‘z ayblarini berkitish maqsadida pora berganlikda ayblanganlar. Yuqorida nomlari keltirilgan ayblanuvchilarning “jinoiy ishlari” bo‘yicha ular O‘zbekiston SSR Oliy sudi tomonidan turli muddatlarga ozodlikdan mahrum qilingan.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, huquq-tartibot tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan milliy xodimlarni turli guruhbozlikka mansublikda ayblab qatag‘on domiga tortish mustabid sovet hukumatining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish faoliyatining bir ko‘rinishi edi. Bu siyosat tufayli millatning faxri hisoblangan milliy huquqshunoslar nohaqlik qurboni bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 31 август куни “Қатағон қурбонлари хотираси” музейидаги ташрифи чоғидаги нутқидан. // Халқ сўзи 2021 йил 31 август.

2. ЎзМА, 1714-фонд, 5-рўйхат, 475-иш, 62-63-варақлар.

3. С.Иброҳим ўғли. 46 лар шайкасининг суди очилди: (1920 йил Нарпай районида тузилиб, Тилов Фармон ўғли бошчилигида иш кўрган 46 кишилик гуруҳ устидан суд бошланган) // “Қизил Ўзбекистон” газетаси, 1929 йил 29 октябрь.

4. “46 лар шайкасининг суди // “Қизил Ўзбекистон” газетаси, 1929 йил 30 октябрь.

5. “46 лар шайкасининг оқибати”. // “Қизил Ўзбекистон” газетаси, 1929 йил 31 октябрь.

6. “46 лар шайкасига ҳукм ўқилди”. // Қизил Ўзбекистон” газетаси, 1929 йил 31 октябрь.

7. *Тожибоев О*. Қосимовчилик томирига ўт қўяйлик: Зарафшон халқ судлари орасида Қосимовчиликнинг томирлари бор; Улар ғалла тайёрлаш вақтида муштумзўрларга ён бериш билан майдонда кўриндилар // “Қизил Ўзбекистон” газетаси, 1930 йил 19 сентябрь.

8. Суд аппаратларини Қосимовчилик қолдиқларидан тозалаймиз: Адлия идораларига омманинг назорати ва ёрдами талаб қилинади // Қизил Ўзбекистон” газетаси, 1930 йил 7 август.

9. ЎзМА, 1714-фонд, 5-рўйхат, 475-иш, 82-86-варақлар.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 19 июндаги “Сиёсий қатағон қурбони бўлган юртдошларимиз ҳаёти ва фаолиятини ўрганиш, тарғиб этиш ҳамда уларнинг хотирасини абадийлаштириш борасидаги ишларни кенгайтириш тўғрисида”ги қарори [Интернет манба]. URL: https://lex.uz/docs/7027939 (Мурожаат этилган сана: 09.08.2024)

THE PART OF THE PERSONS REPRESSION BY THE "AFFAIR OF THE 46" OF THE SOVIET REGIME

U.K. Ubaydullayev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1(85). 40-47.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *"case of the 46th gang", "Kasimovshchina", court, Bolshevik party, national independence, colonialism, prosecutor, defendant, judicial system, repression.*

The methodological basis for preparing the article was the concept of ensuring the implementation of the decisions and decrees of the President of the Republic of Uzbekistan on the study, promotion and perpetuation of the memory of our compatriots who were victims of political repression. «The trial of the gang of 46 opened», «The trial of the gang of 46», «The consequences of the gang of 46», «The verdict was pronounced on the gang of 46», published in the 1929-1930 issues of the «Kyzyl Uzbekistan" newspaper. "Let's set fire to the veins of Kasimovism; "There are veins of Kasimovism among the Zarafshan people's courts" "We will cleanse the judicial apparatus from the remnants of "Kasimovism": Public control and support are required for justice institutions" and other scientific articles and pamphlets on the topic were analyzed, and quotes were taken from them. A large amount of material was found by studying documents stored in the archives of the National Archive of Uzbekistan and the State Security Service of the Republic and was introduced into scientific circulation for the first time. The article used methods and techniques such as historicity, objectivity, scientificity, comparative analysis, historical-chronological, analysis and synthesis, and reliance on numbers and evidence in specific historical conditions.

According to the testimony of Alim Kholboy, who served as the prosecutor of the Zarafshan district from December 1927 to May 1929, the case of this "criminal group" was considered by a court panel headed by the chairman of the Zarafshan district court, Gafurov, in April-May 1929. "Gafurov was under the influence of the secretary of the Zarafshan district executive committee, Gulom Kadyrkhojaev, and the deputy chairman of the executive committee, Said Aliev. Gathering around him people who would take instructions from him during the consideration of each criminal case, Gafurov distorted the party's instructions and pursued a policy of punishment that suited him". According to the verdict of the Zarafshan district court on the "case of the 46s", 3 people were sentenced to death by firing squad, 7-8 people were acquitted, and the rest were sentenced to 8-9 years in prison, but the verdict was suspended by the supreme court for a number of reasons and the case was decided to be retried in court. The verdict of the Zarafshan District Court on the "46s Case" did not satisfy the officials of the totalitarian regime, because they aimed to suppress the so-called "printers", who were actually engaged in armed struggle for the freedom of the country, by organizing various fabrications and slanders. The verdict of the Zarafshan District Court on the "46s Case" was canceled, and the case was transferred to the mobile session of the Supreme Court of Uzbekistan for reconsideration. The next session of the mobile session of the Supreme Court of Uzbekistan was held from October 19 to October 30, 1928 in the village of Mirbozar, Narpay district.

References:

1.(2021) Prezident Sh.M.Mirziyoevning 2021-yil 31-avgust kuni "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyidagi tashrifi chog'idagi nutqidan [From the speech of President Sh.M. Mirziyoyev during his visit to the "Memorial of Victims of Repression" Museum on August 31, 2021]. *Xalq so'zi*. August 31.

2. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA)[National archive of Uzbekistan (NA of Uz]. Fund 1714, List 5, Case 475, Sheets 62-63.

3. S.Ibrohim o'g'li. (1929) 46 lar shaykasining sudi ochildi: (1920 yil Narpay rayonida tuzilib, Tilov Farmon o'g'li boshchiligida ish ko'rgan 46 kishilik guruh ustidan sud boshlangan [The trial of the gang of 46 was

opened: (The trial began against a group of 46 people formed in the Narpay district in 1920 and operating under the leadership of Tilov Farmon ugli)]. *Qizil O‘zbekiston*. October 29.

4. (1929) 46 lar shaykasining sudi [The trial of the gang of 46]. *Qizil O‘zbekiston.* October 30.

5. (1929) 46 lar shaykasining oqibati [The consequences of the gang of 46]. *Qizil O‘zbekiston*. October 31.

6. (1929) 46 lar shaykasiga hukm o‘qildi [The gang of 46 was sentenced]. *Qizil O‘zbekiston*. October 31.

7. Tojiboev, O. (1930) Qosimovchilik tomiriga o‘t qo‘yaylik: Zarafshon xalq sudlari orasida Qosimovchilikning tomirlari bor; Ular g‘alla tayyorlash vaqtida mushtumzo‘rlarga yon berish bilan maydonda ko‘rindilar [Let’s set fire to the veins of Kasimovism: There are veins of Kasimovism among the Zarafshan people’s courts; They appeared on the field during the grain harvest by giving in to the gluttons]. *Qizil O‘zbekiston*. September 19.

8. (1930) Sud apparatlarini Qosimovchilik qoldiqlaridan tozalaymiz: Adliya idoralariga ommaning nazorati va yordami talab qilinadi [Let us cleanse the judicial apparatus from the remnants of Kasimovism: Public control and assistance are required for the judicial institutions]. *Qizil O‘zbekiston.* August 7.

9. NA of Uz, Fund 1714, List 5, Case 475, Sheets 82-86.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyundagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori [Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 19, 2024 “On expanding the work on studying, promoting and perpetuating the memory of our compatriots who were victims of political repression”]. [Online]. URL: https https://lex.uz/docs/7027939 (Date of Access: 09.08.2024)

Muallif haqida ma’lumot:

UBAYDULLAYEV O‘ktamjon Qodirovich – tarix fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti. E-mail: uktamjon1969@gmail.com